

1-SENTABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI KUNI

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

60-61 (16514)
2022-yil, 31-avgust
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqib boshlagan

Yoshlar siyosati
3-bet

Qoraqalpoq yoshlariga
yangi imkoniyatlar

Bayram tuhfası
7-bet

Qayta tug‘ilgan
Milliy bog

Matonat
9-bet

Rad etil(ma)gan
ko‘ngillar



MARDLIK VA SADOQAT TIMSOLI

MAMLAKATIMIZ MUSTAQILLIGINING 31 YILLIGI ARAFASIDA URGANCH SHAHRIDA
SARKARDA JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYKALI OCHILDI.

maxsus son

HAR QANDAY MUKOFOT EL-YURT E'TIROFI, VATAN ISHONCHIDIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq, davlatimiz mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan ko'plab vatandoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlangan edi. Shuningdek, mamlakatimiz bilan hamkorlikni rivojlantirishga qo'shayotgan katta hisssasi uchun bir guruh chet el fuqarolari "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

30

-avgust kuni Ko'ksaroyda mazkur mukofotlarni topshirish marosimi bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yig'ilganlarni Mustaqillik bayrami va mukofotlar bilan tabriklab, ezgu tilaklar bildirdi.

- Davlatimizning oliy mukofotlarini siz, azizlarga topshirish men uchun ham katta sharaf. Fursatdan foydalanib, barchangizni, joylarda mukofotlarni qabul qilib olayotgan yurtdoshlarimizni chin yurakdan tabriklayman, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda, ulkan reja va dasturlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz mukofotlanganlarni ana shu islohotlarning tashabbuskorlari, yangi O'zbekistonning bunyodkorlari deb atadi.

- Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun mehnat qilgan odam hech qachon kam bo'lmaydi. Bugun sizlarning olijanob va mardona mehnatingizni xalq munosib

baholayapti, davlatimiz qadrlayapti. Hamma sizlarga havas bilan qaraydi, - dedi Prezident.

Keyingi paytlarda dunyo tahlikali bo'lib borayotgani, raqobat keskin tus olib, iqtisodiy aloqalarda uzilishlar bo'layotgani haqida fikr bildirildi.

- Bu murakkab sharoitda yetti marta emas, yettmish marta o'lohab ish tutishimiz kerak. Tashqi siyosatimizni shunday tuzyapmizki, bizning yakka-yu yagona muddaomiz - O'zbekiston manfaatini ta'minlash. Maqsadimiz - xalqimizni rozi qilish. Buning uchun imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishimiz, joydari qilib aytganda, borini asrab, yo'g'ini yaratib yashashimiz kerak, - dedi davlat rahbari.

Bugun xalqimiz bir mushtdek jips. Hamma o'z sohasida mamlakat rivojiga hissa qo'shmoqda. Mo'tabar faxriylarimiz katta hayot tajribasi bilan yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda. Omilkor tadbirkorlar, dehqon va fermerlar, ishchi-muhandislar mam-



lakatimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shmoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohasi vakillari yurtimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish yo'lida fidoiylik namunasini ko'rsatmoqda.

Mahallaga tushib, ishlarni manzilli tashkil etish - davlat idoralari faoliyatining mezoniga aylandi. Mahalla faollari bu islohotlarga qanot bo'lmoqda. Xotin-qizlar yurtimizdagi demokratik jarayonlarning, xalqchil islohotlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisiga

aylanib borayotir.

Xalqimiz umr mazmunini farzandlarida ko'radi. Shunday mehr-e'tibor bilan ulg'aygan yoshlarimiz bugun hamma sohada ilg'or bo'lib, mamlakatimizga haqiqiy tayanch va suyanch bo'lib maydonga chiqmoqda.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari mukofotlarni tantanali ravishda topshirdi.

Mukofotlanganlar yuksak e'tibor uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

O'ZA

UNUTIB BO'LMAYDIGAN LAHZALAR

Umida OMONOVA,
Shaxmat bo'yicha O'zbekiston
milliy terma jamoasi a'zosi,

Sirg'ali tumani 266-maktabning 8-sinf o'quvchisi,
"Kelajak bunyodkori" medali sohibi:



- 2016-yildan qator respublika va jahon miqyosida o'tkazilgan shaxmat musobaqalarida qatnashib, 2 karra jahon, 10 karra Osiyo, 10 karra O'zbekiston chempioni hamda Olimpiada sovrindori bo'ldim. O'tgan yili sport yo'nalishida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib ko'rildim. Yana ko'plab musobaqalarda yurtimiz sha'nini munosib himoya qildim. Jumladan, Gretsiyada o'tkazilgan jahon chempionatida 2 ta oltin, Maldiv orollarida bo'lib o'tgan Garbiy Osiyo chempionatida 3 ta yo'nalishda ham oltin medalni qo'lga kiritdim.

Xalqaro musobaqalar chog'ida yelkamda katta mas'uliyat borligi, butun xalqimiz, oilam va ustozlar ishonayotgani xayolimdan o'tadi. Shundan kuch olaman, bor diqqatimni jamlab, hayajonga berilmaslikka intila-

man. G'olib bo'lganimda ichimdan faxr tuyg'usi o'tishi bilan birga, oqlangan ishonch yukidan xalos bo'laman. Jahon arenalaridagi quvonch ko'z yoshlarini, yonimdagi tengdoshlarimdan bir pog'ona balandda turib bayrog'imiz ko'tarilayotganidagi hisslarni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

44-Jahon shaxmat olimpiadasidan qaytgach Prezidentimiz farmoniga binoan "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Kuni kecha bu medalni shaxsan davlatimiz rahbarining o'zlari topshirdi. Unutib bo'lmaydigan lahzalar. Men uchun bundan ortiq baxt yo'q. Prezidentimizning biz shaxmatchilarga qaratayotgan e'tibor va g'amxo'rliklari sabab shaxmatimizni dunyo tan olmoqda. Biz shu peshqadamlikni qo'ldan bermaymiz.

“

XALQARO MUSOBAQALAR CHOG'IDA YELKAMDA
KATTA MAS'ULIYAT BORLIGI, BUTUN XALQIMIZ,
OILAM VA USTOZLAR ISHONAYOTGANI
XAYOLIMDAN O'TADI.



QORAQALPOQ YOSHLARIGA YANGI IMKONIYATLAR

YAQINDA DAVLATIMIZ RAHBARINING NUKUS SHAHRIGA TASHRIFIDAN SO'NG YOSHLAR UCHUN BIR QANCHA YANGILIKLAR BO'LDI.



muhim rol o'ynaydi. Negaki, 2022-yil davomida "Yoshlar daftari" tizimi orqali 54 ming nafar yoshni qamrab olib, ularni kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka o'rgatish orqali ish va daromad manbayi bilan ta'minlash belgilandi.

Bundan tashqari, joriy yilda 14 ming nafar yoshni doimiy va jamoat ishlari-ga joylashtirish, 2,2 ming nafarini tashkillashtirilgan mehnat migratsiyaga jalb etish, 5,7 ming nafariga sub-sidiyalar, 5,8

ming nafariga kreditlar ajratish, 12,9 ming nafar yoshlarga ekin maydonlari ajratish orqali bandligini ta'minlash maqsad qilingan. Shu kunga qadar 9 ming nafar yosh kasb-hunar va tadbirkorlik asoslari bo'yicha o'qitildi, 4,1 ming nafar ish-siz yoshlarni tadbirkor va hunarmandlarga birlashtirish orqali yoshlar bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, mahalladagi yoshlar yetakchilari hokim yordamchilari bilan hamkorlikda 29 605 nafar (54,82 foiz) yoshlarning bandligini ta'minlashga ko'maklashdi. Shundan 7 732 nafar yosh bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish hisobiga, 55,23 nafari yangi loyihalar tashkil etish hisobiga, 350 nafari vaqtinchalik jamoat ishlariga, 36 nafari tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi orqali ishli bo'ldi. 1 247 nafar yoshga

2 milliard 910 million so'm subsidiyalar ajratish orqali bandligiga ko'maklashildi.

4 797 nafar yoshga tadbirkorlik va hunarmandchilik loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 108 milliard 108 million so'm kredit ajratildi.

Natijada 4814 ta ish o'rni yaratildi. **10 032 nafar yoshga 3143,93 gektar yer maydoni ajratilib berildi.**

Mahalladagi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar va loyihalar uchun jami 4 ming 814 ta sport anjomlari, 118 ta musiqa asboblari olib berildi. Mahalliy byudjet va homiylar mablag'lari hisobidan mahallalarda yoshlar uchun qulay joylarda 1-tipdagi jami 139 ta, 2-tipdagi jami 4 ta yoshlar komplekslari barpo etildi.

Xususan, ta'limni rivojlantirish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflardan kelib chiqib Qoraqalpog'istondagi yosh tadbirkorlarga **7 yilgacha** muddatga imtiyozli shartlarda ssudalar ajratish, bo'sh turgan davlat obyektlarida yoshlar va xotin-qizlarni xorijiy tillar va IT sohasiga o'qitish kurslarini yo'lga qo'yish, ushbu obyektlarni tadbirkorlarga **5 yilgacha** bepul foydalanishga berish, Qo'ng'iro't, Nukus va Chimboy tumanlarida 4 ta "Ishga marhamat" monomarkazlarini tashkil etish, Qoraqalpog'istondagi ehtiyojdan kelib chiqib ekologiya, qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, qurilish sohalarida tayanch doktoranturada qo'shimcha kadrlar tayyorlashga topshiriq berildi.

Qoraqalpog'istonda yoshlarning oliy ta'lim qamrovi 30 foiz edi. Bu muammo ham Prezidentimiz tomonidan hal etilib, qoraqalpoqlik yoshlar uchun mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlariga alohida **6,5 mingta qabul kvotalari joriy etildi.** Bu esa kelajakda yoshlarimizning oliy ta'limga qamrovini 60 foizga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

YOSHLAR BANDLIGI – ASOSIY MASALA


"Yoshlar sanoat zonalarini" ning barpo etilishi, tumanlarimizda "Ishga marhamat" monomarkazlarining qurilishi bugungi kundagi asosiy muammolardan biri – yoshlar bandligini ta'minlashda

“

QORAQALPOG'ISTONDAGI
YOSH TADBIRKORLARGA 7
YILGACHA MUDDATGA
IMTIYOZLI SHARTLARDA
SSUDALAR AJRATILADI.



Po'lat MAXSET'BAYEV,
Yoshlar ishlari agentligining
Qoraqalpog'iston Respublikasi
boshqarmasi boshlig'i



QORA UY BARPO ETILDI

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Bir nuroniyga o'n nafar yosh" loyihasi doirasida 515 nafar nuroniyga 4794 nafar yosh birlashtirildi. Nukus shahridagi "Tung'ish qonis" mahallasida milliy an'analarni o'zida jamlagan qora uy barpo etilib, "Nuroniylar dam olish markazi" tashkil etildi. Qora uy qoshida kichik bog' mavjud bo'lib, u yerda nuroniy va yoshlarning shaxmat o'ynashi uchun sharoitlar yaratildi. Har haftaning payshanba kuni mahallalarda "Uch avlod uchrashuvlari" va "Nuroniylar e'tborimizda" mavzularida tadbirlar ham tashkil etilmoqda.

Yoshlar – ertangi kun davomchilari. Ular bilan bog'liq muammolar mavjud har qanday millat, davlatning kelajagi yo'q. Ularga yetarli sharoitlarni yaratib berish, eng asosiysi, e'tibor qaratish lozim.

MILLIY AN'ANA VA QADRIYATLAR

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLAB, DAROMAD TOPISHIGA XIZMAT QILMOQDA

Boysun nomini eshitganda ko'z oldimizda milliy liboslar, kashtachilik, do'mbira-yu chanqovuz chalayotgan insonlar gavdalanadi. Ayni shu milliy an'analarni uzoq yillardan buyon asrab-avaylab kelayotgan makonga chet ellik mehmonlarning ham qiziqishi baland. Bugungi kunda turizm sohasi Boysun ahlining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

– Mahallamiz yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish haqida ko'p o'yladim. Bir kuni uzoq yillardan beri milliy kashtachilik bilan shug'ullanib, yaxshi daromad topayotgan Feruza opa Xoliqova mahalla yoshlariga o'z hunarini o'rgatish istagini bildirdi. Ammo buning uchun bo'sh binoga ehtiyoji borligini aytdi. Shundan so'ng mahallamiz idorasi yonidagi anchadan buyon foydalanilmayotgan binoni "Hunarmandchilik maktabi"ga aylantirishga kelishib oldik.

Mazkur bino qisqa muddatda ta'mirlanib, foydalanish uchun shay holatga keltirildi. Xona milliy qiyofada bezatilib, xalq amaliy san'ati namunalari bilan jihozlandi. Hunar o'rganish istagidagi yoshlar kashtachilik, quroq ko'rpacha, do'ppi va boshqa ko'plab xalq amaliy san'ati namunalari tayyorlashni o'zlashtirdi. Oradan qisqa vaqt o'tib maktab ulgurji ravishda buyurtmalarni qabul qila boshladi. Hozir markaz o'quvchilari buyurtmachilarga mahsulotlarni yetkazib bermoqda.



Javlonbek SUVONOV,
Boysun tumanidagi "Gaza" mahallasi
yoshlar yetakchisi:

Milliy hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat Boysunning tashrif qog'ozi, balki hudud yoshlarining bandligini ta'minlashda ham yaxshigina yechim bo'lib xizmat qilmoqda. Tumandagi "Gaza" mahallasi yoshlarining milliy kashtachilik, hunarmandchilikka qiziqishi baland. Shu sabab mahallada yoshlar yetakchisi Javlonbek Suvonov tashabbusi bilan "Hunarmandchilik maktabi" faoliyat boshladi.


Shu kunga qadar markazdan 11 nafar yosh hunar o'rganib, mustaqil ravishda o'z biznesini boshladi. Ularning bir nechtasi "Yoshlar daftriga" ro'yxatga olinib, shu asosida tikuv mashinalariga ham ega bo'ldi. Maktabni tugatib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan yoshlarning o'rniga boshqa yoshlar kelib, hunar o'rganishni boshladi. Bundan keyin ham maktab shu tariqa o'z faoliyatini davom ettiradi.

tini davom ettiradi.

Quvonarlisi, ushbu maktab mahallamiz yoshlarining o'zini o'zi band qilishida yaxshigina ko'makchi bo'lib xizmat qilmoqda. Tumanimizga mehmon bo'ladigan sayyohlar ham mazkur maktabga kelib, uning faoliyati bilan tanishadi. Ko'pincha sayyohlar yoshlarning mehnat mahsulini sotib oladi.

“

HUNAR O'RGANISH ISTAGIDAGI YOSHLAR KASHTACHILIK, QUROQ KO'RPACHA, DO'PPI VA BOSHQA KO'PLAB XALQ AMALIY SAN'ATI NAMUNALARINI TAYYORLASHNI O'ZLASHTIRDI.





66

Hunarmandlar mahallasi. Nomiga munosib ravishda mahallaning katta-yu kichik aholisi hunar bilan shug'ullanadi. Hatto imkoniyati cheklanganlar ham hunar ortidan daromad topmoqda. Mahalla yoshlarining yetakchisi esa hech bir hunarmand yoshning ra'yini qaytarmay, ularga imkoni boricha yordam berib kelmoqda.



Bunyod MIRZAYEV, Boysun tumanidagi "Hunarmandlar" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Mahallamiz yoshlaridan biri – Mahburat Rahmonqulova tayanch a'zolari falajligi bois yura olmaydi. Shunga qaramay u do'ppido'zlik, kashtachilik, gilamdo'zlik bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, u o'z hunarini mahalladagi ishsiz yoshlarga ham o'rgatib kelmoqda. Mahburatga zamonaviy tikuv mashinasi juda zarur, u "Yoshlar daftar"ga ro'yxatga olingan. Yaqin kunlarda unga subsidiya asosida zamonaviy tikuv mashinasi ajratiladi. Mahallada uning ishiga havasmand yoshlar ko'p. Ularning bir qanchasi Mahburatdan mato qoldiqlaridan sumka, do'ppi va gilam tikishni o'rganmoqda. Yosh hunarmandning shogirdlari Muhabbat Rahmonqulova, Zarina Avazova, Sharifa Rahmonqulova, Mastona Siddiqova, Zaynura Hamroqulova, Gulhoyo Bo'ronova ham tikkan kashta-yu gilamlarini bozorga chiqarib, daromad qilmoqda.



Mahburat yiliga 30 million atrofida sof daromad topadi. Zamonaviy tikuv mashinasi ajratilsa, daromadi bir necha barobarga oshishiga ishonayotgan hunarmand mahalla yoshlariga ham hunar o'rgatayotganidan faxrlanadi. U Boysun tumanida o'tkazilgan "Tashabbus" ko'rik-tanlovida "Yilning eng yaxshi hunarmandi" yo'nalishida g'olib deb topilgan.

Milliy cholg'u asbobi – chanqovuz yasab, o'z daromadiga ega bo'layotgan Behruz Rahmatov ham faol hunarmand yoshlarimizdan. Uning chanqovuzlari bozorda xaridorgir. Ayniqsa, Boysun tumaniga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlarning Behruz yasagan chanqovuzlarga qiziqishi baland. U o'z mahsulotlarini viloyatning boshqa hududlariga ham yetkazish istagini bildirib, buning uchun haydovchilik guvohnomasiga ehtiyoji borligini aytgandi. Uning talabi asosida uch oylik o'quv kursiga yo'llanma berdik. O'qish to'lovi ham "Yoshlar jamg'armasi"



hisobidan qoplab berildi. Endilikda Behruz o'z mahsulotlarini viloyat bo'ylab yetkazib bermoqda.

Guvohi bo'lganingizdek, milliy an'ana va qadriyatlarimiz yoshlarning bandligini ta'minlash bilan birga daromad topishiga ham xizmat qilmoqda.

YETAKCHINING TUHFASI

Tursunoy XOLIQOVA,

Kasbi tumanidagi "Jizza" mahallasi yoshlar yetakchisi:



"OPENBUDJET" DA G'OLIB BO'LDIM

– "Openbudget" haqida eshitib, bu imkoniyatdan foydalanishni o'yladim. Mahalla yoshlari bilan maslahatlashib, ta'mirga muhtoj, bolalar maktabiga borish uchun yozda chang, qishda loy kechishga majbur bo'ladigan ko'chamizni asfalt qilish kerak degan xulosaga keldik. "Openbudget"ga "Bunyodkor" ko'chamizning 1 kilometr qismini asfalt qilish uchun 500 million so'm imtiyoz so'rab ariza topshirdik.

Shundan so'ng butun mahalla yoshlari va ko'cha sardorlari ovoz yig'ishni boshladik. Mahallaning telegram kanallari, "Jizza yoshlari" guruhrarida e'lon berib

bordik. Bu tashabbusim mahalla raisi H. Xudoyqulovga ham manzur kelib, ovoz yig'ishga butun mahalla ahlini yordamga chorladi. Kecha-yu kunduz yoshlar bilan ovoz yig'ish ishlarini jadallastirdik va harakatimiz besamar ketmadi. Biz 3-o'rin bilan "Openbudget" loyihasi orqali mahallamiz ko'chasini chang va loygarchilikdan xalos etdik.



BAXTLI YOSHLIK UCHUN...

Mamlakatning ertasi – vatanparvar, xalqparvar yoshlarning zimmasida. Ularni yurt kelajagi uchun daxldor qilib tarbiyalash esa bizning vazifamiz. Shu ma'noda bugun O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining bir qancha loyihalari bilan barcha yoshlarni bir nuqtaga jamlash uchun doimiy harakatda.

Ertamiz egalarining ko'zidan misoli o't chaqna b turgani, intiluvchanligi bizni xursand qiladi va qoshimizdagi "Kamalak" bolalar tashkilotining "Vatan, do'stlik va baxtli bolalik uchun" shiori naqadar to'g'ri tanlanganiga ishonch hosil qilamiz. Bu ishonchimiz bolalarimizning baxtli bo'lishi uchun yanada ko'proq harakat qilishga undaydi.

Hech qaysi o'g'il, hech qaysi qiz iqtidorsiz yoki uquvsiz emas. Har bir yoshning o'ziga yarasha iste'dodi va qiziqishlari bo'ladi. Mamlakatimizning barcha hududlarida – markaziy shaharlaridan tortib,

chekka qishloqlariga qadar barcha yoshlar e'tiborimiz markazida. Aynan shuning uchun biz iqtidorli yoshlarni aniqlash, o'zlarini namoyon qilish uchun sharoit yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta tanlovlar tashkil qilganmiz.

Mamlakatning ertasi salohiyatli, ilmiy, tashabbuskor, yangi g'oyalar bilan yashaydigan kadrlar qo'lida. Bu kadrlar zaxirasi to'g'ri shakllantirilsa millat, yurt taraqqiy eta-

di. Shu maqsadda yoshlarimizni bolalik paytidanoq yetakchi qilib tarbiyalash maqsadida "Eng namunalii maktab sardorlari kengashi"

tanlovini tashkil qilganmiz. Bu tanlovda maktabdagi Ittifoq sardorlari o'zlarining faoliyatini va kelajakda nima qilmoqchi ekanini liderlarga xos uslubda tushuntirib berishga harakat qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, bolalikdanoq liderlikni, yuksak rejalar tuzishni, jamoa bilan birgalikda qanday ishlash hamda harakat qilishni o'rganishadi. Biz bu tanlov jamiyatimiz uchun manfaatli va unda qatnashayotgan yoshlar davlatimiz boshqaruv tizimidagi eng yaxshi kadrlar bo'lishiga umid qilamiz.

San'atning raqs, an'anaviy ijrochilik, amaliy san'at, vokal, xalq cholg'ulari, estrada ijrochiligi kabi bir nechta yo'nalishlarda 137 ming nafardan ortiq iste'dod egalarini bir nuqtaga jamlay olgan "Kamalak yulduzlari", yuksak intellektli, aql-u zakovatli yoshlarni kitobxonlikka targ'ib etadigan "Zukko kitobxon" tanlovi, "Bolalar ligasi" mini-futbol musobaqasi, "Munozara" intellektual turniri ham yoshlarimizning faollik pozitsiyasini yaratishga, o'zlarini namoyon qilishlariga qaratilgan.

Prezidentimizning 2017-yil 18-iyuldagi qaroriga asosan, Yoshlar ittifoqining faol a'zolarini oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish maqsadida tavsiyanomalar berish bo'yicha Respublika komissiyasi taqdimno-

masi asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilish belgilangan. Bu yil ham 14 nafar faollarimiz ushbu baxtga loyiq ko'rildi.

Shuningdek, Yoshlar ittifoqida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tagan, harbiy qismlar qo'mondonligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2021/2022-o'quv yilida jami 2 755 nafar talaba to'lov-kontrakt pulining 35 foizi uchun 9 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Joriy yilning iyun oyida o'tkazilgan quvnoq hamda ziyrak yoshlarning jamiyatdagi kamchilklarga befarq emasligini isbotlab bergan, samimiyatga asoslangan kulguni taqdim eta olgan "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovi barchada iliq taassurot qoldirdi. Ushbu tanlovni yaqinda boshlanadigan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida yana tashkillashtirilmogdamiz.


Yoshlarni qo'llab-quvvatlashda yetakchilarning o'rni katta. Shu maqsadda sentabr oyini respublikada "Boshlang'ich tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish oyligi" deb e'lon qilmoqchimiz. Unda bir qancha tadbirlar bilan birgalikda "Yetakchi yoshlar forumi" o'tkazilishi belgilangan.

Shavkat ZAYNIDDIN'OV,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi



“

HECH QAYSI O'G'IL, HECH QAYSI QIZ
IQTIDORSIZ YOKI UQUVSIZ EMAS.





QAYTA TUG‘ILGAN MILLIY BOG‘



Azim poytaxtimizning qoq markazida joylashgan, o‘zbekning milliyligi, ko‘hna tarixi-yu go‘zal madaniyati va san‘atidan hikoya qiluvchi O‘zbekiston Milliy bog‘i bugun qaytadan ko‘rk va chiroy ochib, yangilandi. Bu so‘lim go‘shaga kirib kelar ekanman, o‘sha yoshligimizda ota-onam so‘zlab bergan muhitni bugun men ko‘zim bilan ko‘rib, qalban his qilish baxtiga muvassar bo‘ldim.

O‘zbek kinosining durdona asarlaridan hisoblangan "Maftuningman" filmidagi biz ko‘rgan sahnalar qayta jonlantirilgan. Klara Jalilovaning "Do‘ppi tikdim ipaklari tillodan..." qo‘shig‘ini bog‘ning istalgan burchagidan eshitishingiz mumkin. Bir-biridan ajoyib daraxtlar, maysalar, favvoralar, anhorlar – barcha-barchasi insonga o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi. Ko‘rib, diling yayraydi.

Shaxsan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan olib borilgan qurilish va ta‘mirlash ishlari shunchalar mukammal amalga oshirilganki, zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashib ketgan. Kuni kecha Prezidentimiz bog‘ning yangi qiyofasi bilan tanishib, shu yerda jamoatchilik vakillari bilan ham uchrashdilar.



Go‘zal RAHMONQULOVA,
Yangihayot tumanidagi
"Iqbol" mahallasi yoshlar yetakchisi,
"Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Quvonarlisi, uchrashuvda poytaxtimiz yoshlaridan vakil sifatida men ham qatnashdim. Muhtaram Prezidentimizning suhbatlaridan yana bir bor angladimki, jamiyatimizdagi har bir islohotda, har bir qilinadigan o‘zgarishda yoshlarga qulaylik, yengillik va imkoniyat aks etmoqda. Aynan ushbu dam olish sayilgohi poytaxt yoshlariga, umuman, O‘zbekiston yoshlariga mustaqilligimizning 31 yilligiga ajoyib tuhfa bo‘ldi.

Bugun dunyoda qanday noxush vaziyatlar bo‘layotganidan bebaxar yoki befarq emasimiz, shunday tahlikali zamonda jannatmakon yurtimizda bunyodkorlik ishlarining avjida ekanligi, xalqparvar siyosatimizning namunasi deb bilaman. Ushbu haftaning o‘zida Samarqand shahri, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi bunyodkorlik namunalari fikrimga yaqqol misoldir.

Yoshlar yetakchisi sifatida ushbu bog‘ga mahallam yoshlarining kichik sayohatini uyushtirishni va shu bilan birga, yaqin kunlarda start oladigan "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ayrim yo‘nalishlari, masalan, shaxmat, shashka, stol tennisi, milliy va zamonaviy cholg‘uchilik kabi yo‘nalishlariga tayyorgarlikning bir qismini shu yerda, soy bo‘yi, yashil maysalar va favvoralar atrofida o‘tkazishni reja qilib qo‘ydim.



Besh tashabbus olimpiadasi

“ZUKKO KITOBXON” G‘OLIBLARI PREZIDENT SOVG‘ASI BILAN TAQDIRLANDI

"Bugun bitta kitob o‘qigan bola ertaga 10 ta televizor ko‘rgan bolani boshqaradi".

Shavkat MIRZIYOEV



Mahallada kitobxonlik muhitini shakllantirish ma‘rifatni targ‘ib qilishning eng yaxshi usullaridan biridir. Shu sabab mahalla yoshlari uchun tashkil etilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" tarkibidan "Zukko kitobxon" intellektual o‘yini ham o‘rin oldi. Ushbu tanlov ham mahalla-tuman-viloyat-respublika bosqichlarida o‘tkazildi.

Respublika bosqichida g‘oliblik Mingbuloq tumanidagi "Mustaqillik" mahallasi yoshlaridan tashkil topgan "Ibrat izdoshlari" jamoasiga nasib qildi. Kitobxonlik uchun eng yaxshi rag‘bat, albatta, "Kitoblar jamlanmasi"dir. Shu bois "Mustaqillik" mahallasi yoshlariga tanlovdagi g‘alabasi uchun **Prezident sovg‘asi – 3000 ta kitob taqdim etildi.** Quyida tanloving respublika bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoa sardori Abbosbekning fikrlarini taqdim etamiz.

Abbosbek YO‘LDOSHEV, "Ibrat izdoshlari" jamoa sardori:

– Bolaligimizda ota-onam bergan har bir sovg‘aning ichida, albatta, kitob bo‘lardir. Shundanmi, oilamizda kitobxonlik muhiti shakllangan. Keyinchalik mahallamizdagi yoshlar yetakchisi Jamshid Rahimovdan "Besh tashabbus olimpiadasi" tarkibida kitobxonlarni birlashtiruvchi "Zukko kitobxon" intellektual o‘yini ham borligini eshitdim. Jamshid aka bilan birgalikda mahalla yoshlaridan iborat "Ibrat izdoshlari" jamoasini shakllantirdik. Avvaliga mahalla va tumanimiz nomini birinchilikka olib chiqishni maqsad qildik. Mahalla bosqichida 5 ta jamoa, tuman bosqichida esa 4 ta jamoa bellashdik va g‘oliblik bizning mahallaga nasib qildi. Ayni paytda esa 3000 ta kitoblar mahallamiz kutubxonasidan o‘rin egalladi. Ikkinchi mavsumda ham qatnashib, mahallamiz yoshlarining ma‘naviyatli va bilimli bo‘lishiga o‘z hissamni qo‘shmoqchiman.

Mashura NASRIDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

YANGI TADBIRKOR

"Yoshlar daftari" yoshlarning chinakam ko'makchisiga aylandi. Minglab yigit-qizlarning orzularini ro'yobga chiqarmoqda. Termiz shahrida ham ushbu daftar asosida bir guruh yoshlar o'z tadbirkorligini boshlash imkoniga ega bo'ldi.

Quvonarli, o'zini o'zi band qilish maqsadida murojaat qilgan bu yoshlarga mustaqilligimizning 31 yilligi arafasida Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi tomonidan tikuvchilik mashinasi, payvandlash uskunasi, san texnika asboblari, sartaoshlik jihozlari, kompyuter jamlanmasi, pishiriq pechi hamda qurilish ishlarida ishlatiladigan asboblarni topshirdi.

Biz shunday imkoniyatga ega bo'lgan yoshlar fikrlari bilan qiziqdik.

Maftuna ALLAMURODOVA

/Termiz shahridagi "Pattakesar" mahallasi/
MAHALLADAGI ILK GO'ZALLIK
SALONINI OCHDIM

– Yoshligimdan akamning sartaoshxonasidan beri kelmasdim. U yerda kun kelib o'zimning go'zallik salonimni ochishni orzu qilardim. Maktabni bitirgach oliy ta'limga hujjat topshirdim, biroq o'qishga kirolmadim. Biroz xafa bo'ldim. Shu paytda bolaligimdagi orzum yodimga tushdi. Ammo buning uchun imkoniyatimiz yo'q edi. Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi Erkin Daliev uyimizga kelib, ishsiz yoshlarni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olishini va yoshlarning qiziqishlariga ko'ra yordam berishini aytganida birdan xursand bo'lib, maqsadimni tushuntirdim. Buning uchun, avvalo, Monomarkazda o'zim qiziqqan hunarni mukammal o'rganishim kerakligini aytib, markazga yo'llanma berdi. Uch oylik o'qishim tugashi bilan men-



ga go'zallik saloni uchun kerak bo'ladigan asboblarni topshirdi. Endi mahallamizdagi yagona go'zallik saloni sohibasi bo'ldim. Bundan juda xursandman.

Jang'il FARMONOVA

/Termiz shahridagi
"Nurli kelajak" mahallasi/
O'Z ISHIMGA
QAYTDIM

– 21 yoshdaman. Termiz bank kollejinii tamomlaganman. Oldin xususiy korxonalarda buxgalter yordamchisi bo'lib ishlaganman. Bir yil muqaddam bir xususiy korxonada ishlab yurgan vaqtimda rahbarimiz hamma shaxsiy kompyuter olib kelishi kerakligini aytdi. Biroq sotib olishga sharoitim bo'lmagani uchun meni ishdan bo'shatishdi. Mahallamiz yoshlar yetakchisi shaxsiy kompyuterga ehtiyojim borligini bilgach "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga oldi. Mana, endi men ham o'z kompyuterimga ega bo'ldim. Yana o'z ishimga qaytib, faoliyatimni davom ettiraman.



O'g'iloy QARSHIYEVA

/Termiz shahridagi "Nurli kelajak" mahallasi/
OILAM BYUDJETIGA
HISSA QO'SHAMAN

– Kelin bo'lganimga bir yildan oshdi. Ochig'i, xonadonimizda ko'pchilikning doimiy ish joyi yo'q.


Tikish-bichishdan xabarim borligi, ammo tikuv mashinam yo'qligi bois bu hunarimdan foydalana olmayotgandim. Yoshlar yetakchisiga muammoni aytganimda meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga oldi. Oradan oz vaqt o'tib, zamonaviy tikuv mashinasining egasi bo'ldim. Hozir qo'ni-qo'shnilarimizdan buyurtmalar olyapman. Endi oilamiz byudjetiga o'z hissamni qo'sha olishimdan xursandman.



YETAKCHINING TUHFASI

Javohirbek ODILOV,

Paxtaobod tumanidagi
"Yuqori" mahallasi yoshlar yetakchisi.



"YOSHLAR SANOAT ZONASI" NI YARATAMIZ



– Dastlab ish boshlaganimda yoshlar o'rtasidagi ishsizlik muammasi meni o'yantira boshladi. Yoshlar ham mendan nimadir kutar, umid qilardi. Bilasiz, moddiy yordam vaqtinchalik, shunday yo'l tutish kerakki, yoshlar o'z mehnati orqali moddiy ehtiyojini qondira olsin. Shuni o'ylab, usta-shogird an'anasi asosida yoshlarni hunarmandchilikka yo'naltirishga qaror qildim.

Mahallamiz hunarmand-u kulollari bilan mashhur. Tandirohlik bilan shug'ullanib kelayotgan yoshi ulug' ustozlarga 100 nafardan ziyod yoshlarni biriktirib, ularni ham hunarli, ham daro-

madli qildim. Shu tariqa mahallamizda joylashgan 4-maktabning o'quvchilari ham bo'sh vaqtlarida hunar o'rganishni boshladi. 65 yoshli hunarmand usta Hoshimjon Yunusov beminnat yordamini ayamadi. Hozir ustozning 100 nafardan ortiq shogirdi o'z ishini mustaqil davom ettirmoqda.

Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va yoshlarimizga qulay sharoitlar yaratish maqsadida mahallamiz raisi va hokim yordamchisi bilan hamkorlikda hududimizdagi bo'sh turgan yerlarda "Yoshlar sanoat zonasini yaratish ustida ish olib boryapmiz.



“Yoshlar ovozi – yoshlar bilan!” loyihasining navbatdagi qahramoni 1998-yili Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumanida tavallud topgan Hilola To‘xtamurodova. U “Dunyo sen bilan!” loyihasiga asos solgan. Loyiha “daun” sindromi bilan tug‘ilgan bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirishdan iborat. Bunda hunar orqali bolalarni ruhan va jismonan rivojlantirish metodlari mavjud. Keling, qahramonimizning yutuqlari-yu qiyinchiliklari haqida uning o‘zidan eshitaylik.



Hilola TO‘XTAMURODOVA,
“Dunyo sen bilan!” loyiha asoschisi:

– Inson hayoti davomida ko‘p qiyinchiliklarga uchraydi va ma‘lum bir to‘siqlarni yengib o‘tadi. Men ham bundan mustasno bo‘lmadim. Har qanday vaziyatda ham taslim bo‘lmaslik, sinovlarda yengilmaslik uchun kurashdim. Atrofimdagi kichkina baxtlardan, omadlardan ham quvona oldim. Hayotimga nazar soladigan bo‘lsam, 5-6 yil avval, hatto ki orzu qilib ham ko‘rmagan natijalarga erisha oldim va yangi muvaffaqiyatlar sari dadil qadam tashlayapman. Ko‘pchilik “bu natijalarga qanday erishgansiz?” deb so‘rasa, beixtiyor bolaligimni eslayman.

Taqdirning ishini yoki hayot sinovini, **bolaligim ikki bo‘lakka ajralgan edi.** Bir bo‘lagi onam bilan, bir bo‘lagi buvim bilan o‘tgan. 3 yoshimda ota-onam ajrashgan. Esimni tanigan vaqtlarimda o‘g‘ay otamning uyida ulg‘ayay edim. Boshida hammasi ko‘ngildagidek ketayotgan bir paytda ukamning dunyoga kelishi sabab otamning fe‘li o‘zgardi. Menga boshqa bolalar kabi o‘yinchoq o‘ynash, erkaklik qilish, hatto kitob o‘qish ham taqiqlangandi. Maktabdan kelib bog‘chada ishlayotgan onamga yordam bergani borardim, uy yumushlarini bajarib, ukalarimga qarardim. 2 ta ukamga ko‘z-quloq bo‘lish menga yuklatilgandi.

Kundalik yumushlarni qilib bo‘lgunimcha kechki soat o‘n birlar bo‘lardim, endi dars qilaman deganimda esa otam “o‘nda uxlash kerak”, deya chiqardi. Boshida hammasi ko‘ngildagidek ketayotgan bir paytda ukamning dunyoga kelishi sabab otamning fe‘li o‘zgardi. Menga boshqa bolalar kabi o‘yinchoq o‘ynash, erkaklik qilish, hatto kitob o‘qish ham taqiqlangandi. Maktabdan kelib bog‘chada ishlayotgan onamga yordam bergani borardim, uy yumushlarini bajarib, ukalarimga qarardim. 2 ta ukamga ko‘z-quloq bo‘lish menga yuklatilgandi.

O‘n ikki yoshimda bu sinovlardan, mehsizlikdan buvimnikiga qochib ketdim. Hayot endi yangidan boshlandi. Yangi maktab, yangi sinfdoshlar. Meni maktabdagilar yaxshi ko‘rardi. Fanlardan besh o‘la boshladim. Va, eng muhimi, o‘g‘ay otamning tayoqlari yo‘q edi. Kichikligimdan o‘rganganim munchog‘lardan bezak yasash hunarimni ham davom ettirardim. Hammasi izga tusha boshlagan bir paytda katta bir ko‘ngilsizlik yuz berib, mashina urib ketdi.

Bir yil davomida aravachada yurdim, maktabga ham shu holda qatnay boshladim. Keyinchalik hassaga tayanib bordim. Biroq oyog‘imning gipsidan qishda sovuq o‘tib ketganligi tufayli shifokorlar endi yurilmastligimni aytdi. Bu esa menga juda qattiq ta‘sir qildi. O‘zimni yurishga majburlay boshladim. Doktorlar yurish taqiqlangan desa ham, harakat qilardim. Garchi og‘riqlari jonimdan o‘tsa-da, bir umr bu holda qolishni xohlamadim. Balki shungadir, hozir ham nimagadir erisha olmayman desalar qayta va qayta urinishga harakat qilaman.

Va nihoyat kutilgan kun keldi. 2011-yil 11-iyun kuni ilk qadamimni qayta tashladim. Bu men uchun go‘yoki qayta tug‘ilish bo‘lgan. Odamlarning “oyog‘i qiyshiq ekan”, “o‘soqo ekan”, degan gaplarini eshitardim-u, ahamiyat bermaslikka harakat qilardim.

O‘zimning maqsadlarim yo‘lida harakat qildim. 2014-yil tibbiyot kollejiga, 2018-yil Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutiga grant asosida o‘qishga kirdim. Bu vaqt oraliqida menda ijtimoiy faollik, volontyorlikka qiziqish uyg‘ondi. Buvimning duolari bilan katta maqsadlarga qadam

RAD ETIL(MA)GAN KO‘NGILLAR

Dilnoza ABDUHAMIDOVA tayyorladi

YOXUD “QUYOSH BOLALARI” DUNYO BILAN!

qo‘ydim. Barcha tadbirlarda faol bo‘lib, qizlarning orzusi bo‘lgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga hujjat topshirdim. Bir emas, bir necha bor. Har gal har xil sabablar bilan qaytarishgan: “Hujjatlaring to‘liq emas, xalqaro sertifikatlar kam, maqolalar yo‘q...” To‘g‘ri, o‘sha paytda bu gaplarni eshitib rosa xafa bo‘lganman, yig‘laganman. Biroq hozir ularga rahmat aytaman. Negaki “hujjatlaringda maqolalar yo‘q ekan”, deya qaytargan hakamlar tufayli maqola yozishni o‘rgandim. Gazeta va jurnallarga, saytlarga yuborilgan maqolalarim qirq sakkiz marta qaytib kelib, qirq to‘qqizinchi martasida chop etilgan.

Shu bahonalar sabab “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi bo‘ldim, respublikamizning barcha hunarmandlar ko‘rgazmalar-yu tanlovarida ishtirok etdim. Ik bor Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan “Kashtachilikda hayot porlaydi!” deya nomlangan ko‘rgazmada g‘olib bo‘ldim. 2018-yil Rossiyada o‘tkazilgan xalqaro tanlovga “Eng yaxshi suveren” yo‘nalishida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdim. Bu orada xalqaro forum va tanlovlarda ishtirok etib, grantlar yutib oldim. To‘g‘ri, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ololmadim, biroq undan-da katta yutuqlarni, marralarni zabt etdim.

Bu vaqt oraliqida mening bolaligim bilan bog‘liq loyiham bor edi. Ya‘ni yoshligimda mahallamizda bir qiz bo‘lardim. Juda ham mehribon edi-yu, lekin hech kim u bilan do‘st bo‘lmasdi. Keyinchalik bilsam, u o‘sha vaqtlarda menga notanish va hozirgi faoliyatimga bog‘liq bo‘lgan “daun” sindromi kasalligiga chalingan ekan. Men 6-7 yosh qizcha, u 16 yoshda edi. Biroq bizning fikrlash doiramız bir xil bo‘lgan. U hattoki bir kunda bir necha bora quchoqlab “seni yaxshi ko‘raman”, deya mehrini ko‘rsatardi. Biz bora-bora yaqin do‘st bo‘ldik. Ik-kalamiz birga munchog‘lardan bezaklar yasay edik. Keyin ular boshqa joyga ko‘chib ketishdi.

2017-yil “Barkamol avlod markazi”da qizlar uchun to‘garak tashkil qildim. O‘sha vaqti bir ayol kelib, “Mening ham qizimni to‘garagingizga qabul qilsangiz. Biroq u boshqa bolalarga o‘xshamaydi. U “daun” sindromiga chalingan” dedi. Shu on dugonam yodimga tushdi. Uning quyoshli mehri, hech kimnikiga o‘xshamaydigan tafti yuragimda chuqur iz qoldirgandi. Shu sabab hech ikkilanmasdan “qizingiz kelsin”, dedim. Va bu orada men kasallik tarixi va jarayonlarini, unga chalingan bolalar bilan qanday ishlashni o‘rgana boshladim. Qizaloq bilan 4 oy ishlaganimdan keyin uning qarashlari o‘zgariganiga guvoh bo‘ldim. Bilimki, ular nafaqat bajara oladi, balki yaratadi ham. Va bu holat mening “Dunyo sen bilan!” loyihamning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

O‘zim rus va ingliz tillarini, hunarmandchilikning 30 xil yo‘nalishini yaxshi bilganim tufayli bu loyihani yo‘lga qo‘yishim qiyin bo‘lmadi. Xalqaro mutaxassislar tomonidan iliq kutib olindi va bugungi kunga qadar yigirmaga yaqin davlatda bo‘ldim. Grantlarni qo‘lga kiritdim. 2019-yil Toshkent shahrida shu bolalar uchun to‘garak o‘chdim.

Ular 6 oy davomida hunar o‘rganib, o‘zlari yasagan ishlarini “online” bozorda sotishni yo‘lga qo‘ydi va buning ortidan 11 million so‘mgacha daromad qilgan bolalar bo‘ldi. Buni ko‘rib mehnatlarimdan doim quvonaman. Yoshlar ishlari agentligi hamda respublikamizning “Hunarmand” uyushmasi bilan hamkorlikda viloyatlarda ham bunday bolajonlarga seminar-treninglar o‘tdik. Bu loyiha doirasida qariyb 2 ming nafardan ortiq bolalarni qamrab oldik. Tez kunlarda “daun” sindromiga chalingan bolalarning ota-onalari uchun qo‘llanma sifatidagi videoreklamlarni yaratish niyatidamiz.

Yurtimizda har qanday ezgu g‘oyani amalga oshirsa bo‘ladi. Faqat va faqat intilish, taslim bo‘lmaslik, g‘ayrat-shijoat bilan harakat qilish lozim. Chunki dunyo biz bilan!

“

BIR YIL DAVOMIDA
ARAVACHADA YURDIM,
MAKTABGA HAM SHU HOLDA
QATNAY BOSHLEDIM.

XOTIN-QIZLARGA BERILGAN IMTIYOZ TUFAYLI GRANTDA O'QIYAPMAN



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarga ko'plab imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Eng chekka qishloqlarda yashovchi yoshlar ham bu imkoniyatlardan bebahra qolayotgani yo'q. Ayniqsa, xotin-qizlarimizga e'tibor, ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalaga aylandi.

Kamina shunday imkoniyatlardan bahramand yoshlardan biri. Pop tumanidagi olis mahallada ulg'ayib, bolalikdagi orzularim sari chin dildan intilgan oddiy qishloq qiziman. Oilada 7 kishi istiqomat qilamiz: bobom, buvim, ota-onam, ukam va singlim.

Ota-onam ko'pincha chet elda bo'lgani sababli buvim va bobom tarbiyasini olib katta bo'ldim. To'ng'ich farzand bo'lganim uchun mas'uliyatning katta qismi mening zimmamda bo'lardi. Maktab davrimda "ota-onasi chet elda bo'lgani uchun yaxshi o'qimayapti", degan gap-so'zlar bo'lmasligi uchun ham a'lo baholarga o'qib, doim birinchilardan bo'lishga harakat qilardim.

Uy ishlari, qo'shimcha mashg'ulotlar, uy vazifalari kabi yuklamalardan tashqari, tikuvchilik, momiq iplardan turli kiyimlar to'qish bilan shug'ullanardim. Pazandachilik, shirinliklar tayyorlashga mehrim bo'lakcha edi.

Yoshlikdan ingliz tiliga qiziqishim tufayli O'zbekiston davlat jahon tilari universitetiga hujjat topshirmoqchi bo'ldim, biroq buvimning "sen ham qachondir televizorda chiqib, biz haqimizda gapirarmikinsan", deb aytgan gaplari sabab qarorim tubdan o'zgarib, taniqli jurnalist bo'lish maqsadida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga hujjat topshirdim.

Men to'plagan ball – 144,90 grant uchun yetarli emasdi, lekin "Ayollar daftari"da turuvchi xotin-qizlarga 4 foizlik kvota ajratilishi sabab grant asosida o'qishga qabul qilindim. Bu men va yaqinlarim uchun quvonchli voqea bo'ldi. Kontrakt shartnomasi uchun to'lashim mumkin bo'lgan pul oilaviy byudjetimiz uchun yaxshi foyda bo'ldi.

Niginabonu NASIVALIYEVA,

Pop tumanidagi Abdulla Qahhor nomli mahalla fuqarosi,
O'ZOKU talabasi



"INTELLEKTUAL MAKTAB" LOYIHASI YAKUNLANDI


Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi "Zomin" oromgohida shaxmat bo'yicha Osiyo va jahon chempionlari hamda "Zakovat" va "Munozara" intellektual o'yinlari g'olib va sovrindorlari ishtirokida "Intellektual maktab" loyihasi o'tkazildi.

Loyiha doirasida turli o'yinlar, sport musobaqalari tashkillashtirildi. Barcha uchun qiziq va ommabop mavzular yuzasidan uchrashuvlar ham tashkil etildi. Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan "Intellektual maktab" loyihasi doirasida yoshlarga mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatini rivojlantirish, muammoga xolis yondashish, o'z fikrlarini asoslash va aniq bayon qilish uchun imkoniyatlar yaratib berildi.

"Munozara" intellektual turnirining tarixi, pozitsiyalar tasnifi, turnir qoidalari yuzasidan seminar-trening ham tashkil etildi. Respublikamizning barcha hududlaridan kelgan jamoalar o'rtasida "Munozara" turniri hamda "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.

Mashhura NASRIDDINOVA

"Yoshlar ovozi" muxbiri



YETAKCHINING TUHFASI

Uchqun AXTAMOV,

Vobkent tumanidagi
"Bozorjoyi" mahallasi yoshlar yetakchisi:

SUVSIZ YERLARGA SUV CHIQARDIM



– Mahalladagi 18 nafar ishsiz, qishloq xo'jaligi tushunadigan yoshlarga 10 sotixdan jami 1,8 gektar yer maydoni ajratib berdik. Yoshlarimizga yer ajratilgach, ularni tezda "Yoshlar daftari"dan chiqarishga shoshilmadim. Ajratilgan yer maydoniga borib, yerning unumdorligi bilan qiziqdim.

Bilsam, suv yetib kelishi qiyin bo'lgan joylar ekan. Mahalla ahli, taadbirkorlari bilan maslahatlashib, yoshlarga ajratilgan ekin maydonlariga suv nasoslarini o'rnatadigan bo'ldik. Mahalliy tad-

birkorlar homiyligida suv nasosi ham sotib olindi.

Nasosni ishga tushirish uchun 1 kilometr masofadan elektr simini tortib kelish kerak edi. Hokim yordamchisi bilan birgalikda tuman hokimi, 4-sektor rahbari, tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari, mahalla raisi va Yoshlar ishlari agentligi Vobkent tumani bo'limi boshlig'iga murojaat qildik. Ular birgalikda bu muammoni hal qilib berdi. Hozir yer olgan barcha yoshlar o'zlarini istagandan-da ko'proq daromad olib, ikkinchi ekinni ham parvarish qilmoqda.



*Eng ulugʻ, eng aziz
ayyomingiz muborak boʻlsin!*

**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI JAMOASI**

*xalqimizni, shu jumladan, butun
Yangi Oʻzbekiston yoshlarini 1-sentabr —
Mustaqillik kuni bilan qutlaydi. Sizlarga
Vatan ravnaqi, el-yurt manfaatini taʼminlash,
kasb-hunar va ilm egallash yoʻlida ulkan zafarlar
yor boʻlishini tilaymiz.*



**YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI**




O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida Prezident farmoni qabul qilindi. Ro'yxatda "Shuhrat" hamda "Kelajak bunyodkori" medallari bilan taqdirlangan bir guruh ilg'or va tashabbuskor yoshlar ham bor. Biz ularning ba'zilari bilan suhbatlashib, mukofotdan keyingi kechinmalari, yangi rejaları bilan qiziqdik.

Rashid XO'JAMOV yozib oldi.

Oybek BAZAROV,

Navoiy viloyati ko'zi o'jizlar maxsus kutubxonasi uslubchisi, "Kelajak bunyodkor" medali sohibi:



"BU MENING BURCHIM"

– O'zim ko'z kasalligi bo'yicha II guruh nogironiman. O'z imkoniyatimdan kelib chiqib, ko'zi o'jiz o'quvchilarning muammolari, kitoblarga ehtiyojini yaxshi anglayman. Yoshligimdan kitob o'qishga qiziqardim, ammo ba'zi kerakli adabiyotlarni topishga qiynalar edim. Sababi hamma adabiyotlar ko'zi o'jizlar uchun ham maxsus nashr qilinmaydi. Hozir o'zim viloyatdagi ukalarim va singillarimga, tengdoshlarimga imkon qadar yengillik yaratishga harakat qilyapman.

Bu yil faoliyatimni boshlaganimga 10 yil to'ladi, men uchun bu 10 yillik mehnatlarimning samarasi, menga ishongan va qo'llab-quvvatlagan jamoam, oilamning yutug'i deb o'ylayman. Shuni tushundimki, hamma o'zining ishini, sohasini yaxshi bilsa va vijdonan ishlasa, e'tibordan, rag'batdan chetda qolmaydi.

Bo'sh vaqtimni bekorga sarflagim kelmaydi. Ish faoliyatimdan tashqari, shahka musobaqalarida ham ishtirok etaman. 2009-yili Yaponiyaning Tokio shahridagi sport musobaqalarida yengil atletika bo'yicha ishtirok etib, 2- va 3-o'rinlarga sazovor bo'lganman. Joriy yil "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan shahka musobaqasida birinchi o'rinni egalladim. Kutubxonamizda "Ijodkor yoshlar" klubi hamda ko'zi o'jiz kitobxonlar uchun "Kompyuter savodxonligi" to'garagini tashkil etib, yuritib kelmog'daman.

Yutuqlar va mukofotlar bilan cheklanib, ularga "yengilib" qolish yo'q. Maqsadim – ko'zi o'jizlar kutubxonasi faoliyatini yanada rivojlantirish, ko'zi o'jiz kitobxonlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish.



Tursunqul HUSANOV,
Sirdaryo tumanidagi "Hikmatli" mahallasi yoshlar yetakchisi,
"Shuhrat" medali sohibi:

"BEKORCHI, BEMAQSAD YOSH QOLMAYDI"

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil boshidagi tashabbusli qarori qabul qilingandan keyin qisqa vaqt ichida faxrlanib sanasa arziy-digan ulkan natijalarga erishdik. Menga berilgan vakolatdan foydalanib, mahallamizdagi 27 nafar ishsiz yoshning hammasini ish bilan ta'minladim. "Yoshlar jamg'armasi" mablag'lari hisobidan yoshlarimizga imtiyozli kreditlar ajratildi. Asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilib berildi. Shartnoma asosida o'qiyotgan talabalar va harbiy xizmatga boruvchi yigitlarimizga shartnoma pullari to'landi.

"Hikmatli" mahallasidagi 16-30 yosh oralig'idagi 1103 nafar yoshlarning barchasi sport, kitobxonlik, musiqa va san'at to'garaklari, musobaqalariga to'liq jalb etilgan. Mahallamizda o'g'il bolalardan iborat futbol jamoasini, qizlar ishtirokida voleybol jamoasini shakllantirdik. "Zakovat", "Mushoira", "Debat" jamoalarini tuzdik. Bugun hududimizda birorta ham bekorchi, bemaqsad yurgan yosh qolmadi.

Oldin mahallamizda sport maydoni yo'q edi. O'zim ham sportga qiziqqanim sababli mahalladosh ukalarimga ko'mak bergim kelardi. Respublika ishchi guruhiga mahallamiz yoshlari nomidan taklif bilan chiqqandim, taklifim qo'llab-quvvatlanib, hududimizdagi bo'sh yer maydonida qiymati 540 million so'mlik sport kompleksi qurilmoqda. Ushbu kompleks bitsa, yoshlar bu yerda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazadi. Yana bir yengillik shundaki, mahalla yoshlarining madaniy hordiq chiqarishi uchun har oyda viloyat teatrida bepul spektakl tomosha qilishini yo'lga qo'ydik. Bugun qishloq yoshlarining teatrga mehri ancha oshdi.

Respublikamiz bo'yab mahalladagi yoshlar yetakchilari o'rtasida tajriba almashish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sirdaryo tumani hokimligida tuzilgan ishchi guruh bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'l tumanida bo'lib, "Navro'z" ovuli yoshlari bilan o'zaro ish-tajriba almashdik. Bilasizmi, hamkorligimizni quda-andachilik bilan mustahkamladik: yaqinda Qoraqalpog'istondan mahallamizga 2 nafar kelin tushirib kelmamiz.

YETAKCHINING TUHFASI

Malika XUDOYBERDIYEVA,

Uchquduq tumanidagi "Do'stlik" mahallasi yoshlar yetakchisi:




CHO'LD A BOG' YARATDIM

– Bog' yaratish eng xayrli ishlardan. U kishiga rizq hamda toza havo baxsh etdi. Uchquduq tumani cho'l zonasida joylashgani uchun mahallamizda birorta ham bog' yo'q edi. Bu yil mahalla yoshlari kuchi, homiylar ko'magi bilan ko'rkam uzumzor bog' yaratdik. Uch metr chuqurlikda jo'yaklar qazilib, unum-

dor tuproq tashlandi, 300 tupdan ortiq tok, 200 tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ekildi.

Elimiz quvonib, Uchquduqda ham bog' yaratsa bo'lar ekan-ku deb, bizni duo qildi. Yoshlar bilan mahallamizning har qarichini yashil makkonga aylantirishga kelishib olganmiz.





Aziz yoshlar, hurmatli yurtdoshlar! Mustaqillik bayramingiz qutlug' bo'lsin!

Hur O'zbekistonimizning 31 yilligi keng nishonlanayotgan ushbu shukuhli damlarda sizlarga o'z samimiy tilaklarimizni yo'llashdan baxtiyormiz! Siz, azizlarga mustahkam sog'lik, xonadoningizga fayz-u baraka, mehnat faoliyatingizda omadlar yor bo'lishini tilab qolamiz!

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI JAMOASI




Bayram tuhfası

Nilufar MATKARIMOVA,

Yoshlar ishlari agentligining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi

EL AZIZ, INSON AZIZ

Har bir millat, xalq uchun ozod, erkin, mustaqil bo'lib yashash – eng katta baxt, saodat. Asrlar davomida intilib, kurashib, qo'lga kiritilgan Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug', eng aziz bayramdir. Bu yil mustaqilligimizning 31 yilligi yurtimizda "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida katta tantanalar bilan nishonlanmoqda.



Quvonarlisi, barcha shodiyonalar, o'zgarish va mislsiz yangilanishlarning barchasi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga qaratilgan. Bu qutlug' kunlarda yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan, nuroniy keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

BEPUL MAKTAB FORMALARI

Mustaqilligimizning 31 yilligi farg'onalik yoshlar tomonidan ham munosib kutib olinmoqda. Yoshlar ishlari agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi barcha tuman va shahar markazlarida, madaniyat maskanlari, xiyobonlarda "Istiqlol

bayraming muborak bo'lsin, ona diyorim!" mavzusida konsert dasturlarini namoyish etmoqda.

Mahalla yoshlari o'rtasida sport musobaqalari tashkilashtirilmoqda. O'zbekiston tumanida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida voleybol bo'yicha mahallalar o'rtasida "Hokim kubogi" o'tkazildi. Tumaning Yaypan shahridagi 23-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida "Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini, "Men o'qigan kitob", "G'azalxonlik", "San'at g'unchalari", "Axborot texnologiyalari bilimdoni", "Kamalak" yulduzlari kabi qator musobaqa, festival va ko'rik-tanlovlarning g'olib va sovrindorlariga diplom, sertifikat hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

Yoshlar ishlari agentligining O'zbekiston tumani bo'limi tashabbusi hamda tuman hokimligi ko'magida **54 nafar chin yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'quvchilarga maktab formalari sovg'a qilindi.**

Qo'shtepa tumanidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarning **9 nafar farzandlari uchun sunnat to'yi o'tkazildi.** Tadbir davomida bolajonlarga esdalik sovg'alari ulashildi.

156 NAFAR KEKSALAR XONADONLARI OBOD ETILDI

Buxoro viloyatida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida 10 dan ortiq konsert dasturlari tashkil etildi.

Mustaqillik bayrami munosabati bilan Buxoro va Kogon shaharlari, G'ijduvon, Vobkent, Romitan, Jondor, Shofirkon, Qorako'l, Buxoro tumanlaridagi 6 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi va faxriysi, 9 ta "Oilaviy bolalar uylari" tarbiyalanuvchilari, 1 ta "Saxovat" uylarida yashayotganlar, 753 nafar "Temir daftar", 652 nafar "Ayollar daftar", 667 nafar "Yoshlar daftar" va 24 nafar "Mehr daftar", 251 nafar "Ijtimoiy himoya reyestri"ga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olinib, taniqli san'atkorlar ishtirokida xayriya tadbirlari o'tkazildi. Yoshlar yetakchilari hamda volontyor yoshlar tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan **156 nafar keksa va nuroniy-larning xonadonlari obod etildi.**

Buxoro va Kogon shaharlari, G'ijduvon, Peshku va Buxoro tumanlarida chin yetim, boquvchisini yo'qotgan, "Temir daftar", "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar"da turuvchi oila farzandlarining **100 nafarining sunnat to'ylari o'tkazildi.**

MUSTAQILLIK

Loyiha muallifi **Ziyoda RAHIMBOYEVA**


Loyihamizning har sonida yangiliklarga boy yoki sizga tanish, ammo u qadar ko'p ma'lumotga ega bo'lmagan har qanday mavzu haqida batafsil, ishonchli va qiziqarli ma'lumotlar to'plamini taqdim etib boramiz. Bu ma'lumotlar chegaralanmagan doirada – texnika, tibbiyot, san'at turi, mashina rsumi yoki me'morchilik obidasi haqida bo'lishi ham mumkin.

Loyihaning bugungi mavzusi mustaqillik.

Fursatdan foydalanib, barchani Vatanimizning 31 yillik shodiyonasi – mustaqillik bayrami bilan muborakbod etamiz, tinchligimiz abadiy bo'lsin!

BU...

Mustaqillik davlatning ichki va tashqi ishlarda, shu bilan birga, faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy erkinligini ham anglatadi. O'zini mustaqil deb e'lon qilish har bir davlatga xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini tufta etadi. Millatning ma'naviy uyg'inishi uchun to'la imkoniyat yaratadi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyati, xalqining azaliy urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini tiklanadi. Erkka erishgan, ayniqsa, mustamlakadan qutulgan xalq yurtining to'la xo'jayini bo'lib, o'z taqdirini o'zi belgilaydi. **Mustaqil deb tan olinishi uchun har bir davlatning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi va armiyasi bo'lishi lozim.**



DAVLAT SIFATIDA TAN OLINISHI UCHUN...

Dunyo davlatlari ichida siyosati, tuzumi, rasmiy nomi, davlat ramzlari va hukumati mavjud bo'lsa-da, tan olinmagan yoki qisman tan olingan davlatlar ham uchraydi. Ular Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo mamlakatlar tomonidan diplomatik tan olinmagan. Vaholanki, dunyo davlatlari tomonidan suverenitetning tan olinishi eng muhim omil hisoblanadi. Suvereniteti qisman tan olingan davlatlar sifatida Abxaziya Respublikasi, Shimoliy Qibris Turk, Janubiy Osetiya, Tayvan, Sahroyi Kabir Arab Demokratik Respublikasi, Kosovo, Falastin va Donetsk Xalq Respublikasini misol qilish mumkin. Bu davlatlarni juda kam mamlakatlar tan olgan yoki hududining ma'lum qismi hanuz boshqa bir davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Hech bir mamlakat tan olmagandavlatlar ham yo'q emas: Somaliland Respublikasi, Liberland va Ambazoniya shular qatoriga kiritilgan. Nachora, 1933-yilda qabul qilingan Montevideo konvensiyasiga muvofiq, davlatchilikning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan mezonlari mavjud va ularga amal qilish shart. Unga ko'ra, davlatchilikka da'vo qilayotgan hudud doimiy aholiga, belgilangan hududga, hukumatga va xalqaro munosabatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.


Shu o'rinda e'tirof etish kerak, bundan 32 yil avval Sovet Ittifoqi parchalangach birinchilardan bo'lib mustaqilligini e'lon qilgan va jahon xaritasi ichida eng yosh davlat hisoblanuvchi Vatanimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan davlat Turkiya hisoblanadi.

Bugungi kunda BMTga a'zo bo'lgan dunyoning nufuzli davlatlari ichida 136 mamlakat Vatanimiz mustaqilligini rasman tan olgan va diplomatik aloqalar o'rnatgan. Bundan tashqari, Syerra-Lione, Botsvana, Panama, Jibuti, Gabon Respublikasi, Kabo-Verde Respublikasi, Ekvatorial Gvineya Respublikasi,

Burkina Faso, Lesoto Qirolligi, Togo, Madagaskar va Somali Respublikalari O'zbekiston mustaqilligini e'tirof etgan, ammo bu davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatilmagan.

BAYRAM

Insoniyat azaldan ozodlikka intilib yashagan, yashaydi va yashayapti. Shunday ekan, ma'lum bir mamlakat mustaqillikka erishgach, ushbu kunni belgilashi va milliy bayram sifatida e'lon qilishi tabiiy. Ozod O'zbekistonimizda kuz faslining ilk kuni – 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida keng nishonlanadi. Bu sana arafasida, ya'ni 31-avgust kuni yana bir ulug' xotira kuni bo'lib o'tadi. Bu qatag'on qurbonlarini yod etish kunidir. Bunda qanday ramziy ma'no yashiringanini anglash qiyin emas. Mustaqil va tinch hayotimiz uchun o'z jonidan kechgan ota-bobolarimiz, millat oydinlarini yod etish, xotirasiga hurmat bajo keltirish har birimizning yelkamdagi farz bilan barobardir!



MUSTAQILLIK ASOSCHILARI

Dunyoda shunday shaxslar bor, ularning ismi aytilganda beixtiyor ko'z oldimizda mustaqillik asoschilari gavdalanadi. Har bir mustaqil davlatning barpo etilishida butun xalq uchun kurashgan, hatto o'limga tik boqib, erk sari yo'l boshlagan bir shaxsning mashaqqatli mehnati singgan bo'ladi. Mahatma Gandi, Jorj Vashington, Mun Chje In, Mao Szedun va yana ko'plab nufuzli shaxslarni misol sifatida keltirish mumkin. O'zbekiston tarixida esa



mustaqillik tamal toshining qo'yilishi **Islom Karimov** siymosi bilan chambarchas bog'liqdir.

MUSTAQILLIK DEKLARATSİYASI

Mustaqillik qonun bilan mustahkamlab qo'yilishi juda zarur, bunda dunyo hamjamiyatida deklaratsiya va maxsus qonunlar muhim rol o'ynaydi. Mustaqil mamlakatimiz tarixida ham shunday muqaddas qonun bo'lib, u 12 modddadan iborat "Mustaqillik deklaratsiyasi"dir. 1990-yil 20-iyun kuni XII chaqiriq – Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. "Mustaqillik deklaratsiyasi" 12 modddadan iborat bo'lib, unda xalqimizning xohish-irodasiga to'la mos keladigan muhim tartib-qoidalar belgilab qo'ygan.



YETAKCHINING TUHFASI

Elmurodjon ABDUHAMIDOV,

Qo'shtepa tumanidagi "Yo'ldoshobod" mahallasi yoshlar yetakchisi:




EHTIYOJMAND OILALAR UCHUN UY QURYAPMIZ

– Xatlov qilib yurgan paytimda mahallamizdagi bir oilaning uy-joyga muhtoj ekanini, yashab kelayotgan uyi yaroqsiz holga kelib qolganini aniqlagandim. Ko'cha sardorlari bilan kelishib, shu xonadonni hashar yo'li bilan qaytadan qurib berishga kelishdik. Hasharni boshlaganimizdan keyin homiyilar ham pay-

do bo'lib, ezgu ishga o'z hissasini qo'shdi. Hozir uy qariyb tayyor holga keldi.

Bu ishimizdan qoniqib, mahalladagi yana bir oilaning uyini qayta qurib berishga bel bog'ladik. Hozir qurilish ishlari boshlanib, poydevor qo'yildi. Nasib etsa, ikki oila ham yaqin kunlarda yangi uyga ko'chib kiradi.





YETAKCHINING TUHFASI

Suhrobjon ISMATULLAYEV,

Nurobod tumanidagi "Chortut" mahallasi yoshlar yetakchisi:


1 MILLIARD 200 MILLION SO'M YUTIB OLDIK

- Faoliyatimni boshlagan ilk kunlarda mahalladagi ishsiz yoshlardan "Bunyodkor yoshlar" guruhini tuzgandim. Dastlab guruh bilan mahalla qabristonini obodonlashtirishga kirishdik. Daraxt ekdik, saranjom-sarishta qildik. 600 metr masofadan chuqur qazib, qabristonga suv quvuri tortdik: suv olib chiqdik.

Ishlarimizni ko'rgan mahalla faollari, tadbirkor yoshlar ham bizga yaqindan ko'maklashdi. Avvaliga faqat ishsiz yoshlardan tarkib topgan guruhimiz tadbirkor va ko'ngilli yoshlar bilan ke-ngaydi.

Mahallamiz yangi tashkil etilgan, mahalla binosi yo'q. Ayni paytda "Bunyodkor yoshlar" guruhi bilan alohida bino quryapmiz. Bunda bizga faollar va tadbirkorlar yaqindan yordam bermoqda.

Mahallamizdagi yo'llar ta'mirlalab holga kelib qolgan, ayrim yo'llar yozda chang, qishda loy bo'lardi. Bahorda mahallamizda ikkita asosiy yo'l qurilishi uchun "Openbudget"dan 1 milliard 200 million so'm yutib oldik. Bunda ham "Bunyodkor yoshlar"ning xizmati katta bo'ldi.



ERK QO'SHIG'I

Rashid XO'JAMOV

YOXUD VATANNI ANGLASH



Yarim tunda uyg'onib ketaman. Onamning uyqusi buziladi: g'ingshiganim, shirin uyqusini o'chirganim unga yoqmaydi. Asabiylashadi, biroz vaqt o'tib, uyqusi ochilgach erkalay boshlaydi. Alla aytadi:

*Uxa, bolam, alla yo alla,
Tinchlik bo'lsin doimo, alla...*

Men Vatani, tinchlig-u ozodlik haqida she'rlar bilmayman. Balki, uning ma'nosiga ham to'liq tushunmasman, ammo bilamaniki, agar ular bo'lsa, onalar cho'chimay alla aytadi, go'daklarning yig'isi-yu kulgisi ularga birdek shirin tuyuladi. Ha, eshitganim shu onamning allasi, u orqali dunyodagi eng totli tuyg'ularni anglaganman.

Onam o'zining uyqusi buzilgani va mening uyqum kelmasidan men bilan go'dak tilida gaplashmoqchi bo'ladi. Uzoqlardan qishloqning kuchuklari bir-biriga javoban huradi - qandaydir behadik, ishonch bilan akkillaadi. Chigirtkalar yoz tunini uyg'otib yuborishdan cho'chimay kuylaydi. Qiziq, butun borliq, tabiat ham erkinlik hissini tuya oladigandek, qachon, qanday yashash mumkinligiga tushunadigandek go'yo.

Yaqinlashayotgan tongni qo'llarimni yozib kutib olgim keladi. Beshikdan qutilish istagi kichkina ongimni egallaydi. Hatto shu harakatimiz ham bizning erkka tashnalgimizni, mutellikka qarshi isyonimizni anglatadi. Demak, insonda hurlikka tashnalik hissi tug'ma shakllanar ekan, bu yashash huquqidek tabiiy, nafas olishdek bardavom his ekan-da.

Nega odamlar tinchlikni bunchalar yaxshi ko'radi, hamma ham uni qadrlaydimi?! Agar "ha" bo'lsa, yer yuzi ko'rgan 2 mudhish urushni va dunyoning turli burchaklaridagi ayovsiz kurashlarni kim boshlayapti?!

Ulg'aydim (qishloq bolasi o'zi tez ulg'ayarkan), saharlab qo'y-qo'zilarimiz, sigirlarimizni dashtga haydab ketadigan yoshga yetdim. Meni shu dalalar katta qildi. Vatani desa, shu kengliklarni, chigirtkalar baralla kuylaydigan kechalarni, tomilarida lolalar o'sadigan qishlog'imni tushunaman, ehtimol tinchlik haqida chiroyli gaplar ayta olmasman, ammo uni boshqalardan kam sevmayman. Kechalari uyqum qochadi, ichkari uyda akamning bolasi yig'laydi, yangam asabiylashadi, bolasiya dakk bergan bo'ladi, biroz o'tib erkalaydi... sokin, behadik alla aytadi:

*Uxa, bolam, alla yo alla,
Tinchlik bo'lsin doimo, alla...*



VATANGA XIYONAT

Sunqurjiq Toysidek yurt xoinlari
Xilof ish qildilar nafaqat dinga,
Eltutmish, Qubacha - hind hokimlari
Qarshi birlashdilar Jaloliddinga.

Yiroq ketolmaysan, dahshatli hisdan,
Achinish o'yingga bo'laverar yor.
Erkak bo'la turib o'tmishimizda
Ayoldan ham xarob bo'lganlar bisyor.

Falakning eng razil, nursiz o'yini,
Oh-vohlar qismatga foyda bermaydi.
Sadoqatdan tumor ilib bo'yniga,
Har kim Temur Malik bo'lavermaydi.

Suvga otiladi tarixiy sirlar...
Meni suvga otdi, demay yor, inim,
Cho'kayotgan ayol asta pichirlar:
-Yurtimizni asrang, Jaloliddinim!

Ishonch oqlanmasa, kuyib ketar dil,
Eng katta dardlar-ku o'chirilmaydi.
Vatani degan odam asli Vatandir,
Vatanga xiyonat kechirilmaydi...

ERKIN HOJIMHAMMAD



SHUNCHAKI KELMAYDI DUNYOGA ODAM

Shunchaki kelmaydi dunyoga odam,
Shunchaki tug'maydi ona dard chekib.
Yaxshilik qilmoqlik kerakdir har dam,
Olamga ezgulik urug'in ekib.

Shunchaki qichqirmas xo'roz ham sahar,
U hayot zangini chaladi nogoh.
Shayton g'aflet uzra tutganda zahar,
Basharni fitnadan etguvchi ogoh.

Shunchaki berilmas dard-u g'am, g'ussa,
Shunchaki berilmas ayriliq, motam.
Qachonki boshiga ko'rgulik tushsa,
G'am cheksa, Xudoni eslaydi odam.

Shunchaki berilmas mustaqil zamin,
Ajodlar shunchaki to'kishmadi qon.
Er yigit ko'tarar el-yurtning g'amin,
Vatani der vujudin tark etguncha jon.

Shunchaki tilda ko'rk olmasin Vatani,
Yurt uchun qilmoqlik kerak jon fido.
Dunyoga shunchaki kelmadik, zotani,
Shunchaki ketmoqdan asrasin Xudo.

Qudus ASAD



Loyiha muallifi: **Shahribonu RAHMATOVA**

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Dilruh Isomiddinova qalbini suratlashlikka bag'ishlagan yoshlardan biri. U O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining xalqaro jurnalistika yo'nalishini tamomlagan. Hozir PressPhoto.uz agentligining amaliyotchisi, "Alimoff Team" hamda "Khan Academy Uzbek" ko'ngillilar jamoasi a'zosi. "Daryo.uz" internet nashrida fotojurnalist sifatida faoliyat yuritayotgan qahramonimizning ijodiy ishlari turli ko'rgazmalarda namoyish etilgan.

Dilruh suratga olayotganda, asosan, insonlarning holatiga ahamiyat beradi: quvonchmi, qayg'umi, o'zaro mehr-muhabbat aks etgan qiyofami – noodatiy va e'tibordan chetda qoladigan vaziyatlarni muhrlashga urinadi. Ma'lum hudud yoki vaqtga mos tushmaydigan, ajralib turadigan holatlar va insonlar ham uni o'ziga tortadi. Deylik, baland poshna va rangli paypoqda qishloqning chang ko'chalari bo'ylab yurib ketayotgan ayol yoki aksincha, shaharning qoq o'rtasida atlas ko'ylak va do'ppi kiyib olgan qizni ko'rsa, darrov kamera obyektivini ularga qaratiladi.

Dilruh ISOMIDDINOVA



– Erkinlikni qadrlayman, qolipdan chiqqim keladi. Ba'zan ulkan shahar ichida ko'zingizga "yarq" etib tashlangan biror tipajni suratga olmoqchi bo'lsangiz, u ochiqchasiga, goho agressiv qarshilik ko'rsatadi. Yoki suratni nashr qilganingizdan so'ng suratlarini o'chirishni so'rab tahdid yoki talab qo'yishadi. Shu sabab samimiy va sodda, kameradan biroz uyalsa ham, sizga indamaydigan, o'zini sipo qilib ko'rsatishga

urinmaydigan, egnidagi uniqaqan ko'ylagi va qilayotgan mehnatidan or qilmaydigan, boricha ko'rindigan qishloqqa xos qiyofalarni e'zozlayman. Shunday chehralarni suratga olganim, olayotganim – katta yutug'im, – deydi suratlash qiz.

Bugun sahifamizda u suratga tushirgan O'zbekistonning go'zal va noodatiy tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Dilruh tarixga muhrlayotgan boshqa suratlarini esa uning shaxsiy telegram kanali @fotografqiz va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali ko'rishingiz mumkin.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Musahihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 16-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida taniladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-18, (71) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 4 bosma taboa. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-855, Adadi – 10527. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6